



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

№2

2026



SERVIS

ILMIY-AMALIY JURNAL 2026 -yil, 2-soni

Muassis: Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan 2008-yil 31-dekabrda
0561-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
O‘zR OAK Riyosatining 19.03.2017 y., 239/5-sonli qarori bilan e’tirof etilgan

Tahririyat a’zolari:

Mas’ul kotib:

i.f.d., prof. M.Q.Pardayev

Muharrirlar:

i.f.d., dotsent F.A.Safarov
PhD, dotsent I.M.Pardayeva
PhD, I.Sh.Ernazarova

Texnik muharrir:

katta o‘qituvchi F.O.O‘roqov

Korrektor:

PhD, dotsent v.b.
T.I.Yahyoyev

Sahifalovchi:

PhD, dotsent v.b.
H.N.Ochilova

1 yilda 4 marotaba
chop etiladi.

**O‘zbekiston hududida
tarqatiladi.**

Tahririyat manzili:

140100, Samarqand shahar,
Amir Temur ko‘chasi, 9-uy,

tel.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

faks: +998(366)231-12-53
el.pochta:

samisiservis@mail.ru

Tahrir hay’ati raisi:

M.E.Po‘latov – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori,
i.f.d., professor

Tahrir hay’ati raisi o‘rinbosari:

O.M.Pardayev – SamISI prorektori, iqtisod fanlari doktori,
professor

Tahrir hay’ati a’zolari:

M.M.Muxammedov – SamISI professori, iqtisod fanlari
doktori

D.R.Zaynalov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

O.M.Murtazayev – TDIUSF direktori, iqtisod fanlari doktori,
professor

M.R.Boltabayev – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

R.X.Ergashev – QarMII professori, iqtisod fanlari doktori

B.K.G‘oibnazarov – iqtisod fanlari doktori, professor

I.S.To‘xliyev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

K.B.Urazov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

D.H.Aslanova – iqtisod fanlari nomzodi, professor

Q.J.Mirzayev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

B.I.Isroilov – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

G.M.Shodiyeva – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

S.N.Toshnazarov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

R.N.Normaxmatov – SamISI professori, texnika fanlari doktori

A.Bektemirov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

M.T.Alimova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

Z.Dj.Adilova – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

Sh.O.Quvondiqov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

L.N.Xalikova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

F.A.Safarov – SamISI dotsenti, iqtisod fanlari doktori

A.M.Karimova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

I.B.Mattiyev – SamISI professori, pedagogika fanlari doktori

B.F.Boronov – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

A.N.Xoliqulov – SamISI professori, iqtisod fanlari nomzodi

X.A.Raximov – SamISI dotsenti, PhD

S.A.Babanazarova – SamISI dotsenti, PhD

H.N.Ochilova – SamISI dotsenti v.b., PhD

I.R.Berdikulova – SamISI dotsenti v.b., PhD

A.Q.G‘apparov – SamISI dotsenti v.b., PhD

Sevinch Shomurot qizi Arziyeva Gilam ishlab chiqarish korxonalarida iste'molchilar xulq-atvorini o'rganish va marketing qarorlarida qo'llash	147
Xilola Nematovna Ochilova, Mirzohid Azamat o'g'li Iskandarov Boshqaruvda menejment tamoyillarining o'rni, ahamiyati va zaruriyati	151
Nigina Marupovna Usmanova Xizmat ko'rsatish sohasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tutgan o'rni hamda holat tahlili	155
INNOVATSIYA VA RAQAMLI IQTISODIYOT	
Xayrulla Qilichovich Qarshiboyev Iqtisodiy jarayonlarni modellash tirishda chiziqli regressiya modelidan foydalanish	162
Malika Axmad qizi Qurbonova Hududiy boshqaruvda raqamli iqtisodiyot samaradorligini ekonometrik baholash	166
Nargiz Toxirovna Sattarova Mintaqaviy tadbirkorlik subyektlarini raqamli ekotizimga integratsiyalash orqali hududiy raqobatbardoshlikni ta'minlash	169
Gullola Mirkamolovna Toxirova Savdo korxonalarida innovatsion rivojlanish va barqaror iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik	172
Sanjar Safarovich Bazarov Iqlimga moslashuvchan asalarichilikni rivojlantirishda raqamli monitoring tizimlarini baholash	175
MOLIYA, PUL MUOMALASI VA KREDIT	
Shavkat Sobirovich Oltayev Milliy iqtisodiyot taraqqiyotida eksport faoliyatining ahamiyati	180
Nargiza Muzafarovna Babaeva Mikromoliyaviy tashkilotlarning kichik biznesni qo'llab-quvvatlashdagi roli	183
BUXGALTERIYA HISOB, IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT	
Тўлқин Исматулла ўғли Яхёев Қурилиш хизматлари кўрсатувчи корхоналарда 5-сон МХХС стандарти асосида активлар ҳисобини юритиш	191
Jahongir Bakhodirovich Ergashev Savdo korxonalari iqtisodiy samaradorligini moliyaviy ko'rsatkichlar asosida tahlil qilish	194
Давлат Комилов Уразов Актуальные вопросы трактовки, классификации и оценки качества аудиторских услуг	198
Asror Maxmanazar o'g'li Yusupov Qo'shma korxonalarda aktivlarni xalqaro standartlar asosida tashkil etishning o'ziga xos jihatlari	205
Alisher Bobaqulovich Ravshanov Chorvachilik xo'jaliklarida qoramollarni hisobga olish muammolari	210
Nilufar Abdaxatovna Abdukadirova Umumiy ovqatlanish korxonalari faoliyati samaradorligini kompleks iqtisodiy tahlil qilish va baholashning zamonaviy yondashuvlari	215
TA'LIM, KADRLAR TAYYORLASH VA PEDAGOGIKA	
Farrux Shadiyorovich Shanazarov Ta'lim va ijtimoiy xizmatlarning inson kapitalini shakllantirishdagi o'rni	218
Зулфия Самиевна Ганиева, Лазиз Абдирашидович Наврузов Социально-когнитивные механизмы формирования математических компетенций: синтез идей Л.С. Выготского и принципов RIE	223
E'TIBORGA MOLIK MASALALAR	
Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев Жамоада яхши етакчининг борлиги – жамоанинг бахти	227

TA'LIM, KADRLAR TAYYORLASH VA PEDAGOGIKA

Farrux Shadiyorovich Shanazarov – SamISI mustaqil izlanuvchisi
ORCID: 0009-0003-4377-2086

TA'LIM VA IJTIMOY XIZMATLARNING INSON KAPITALINI SHAKLLANTIRISHDAGI O'RNI

Annotatsiya. Mazkur maqolada ijtimoiy xizmatlar tizimining inson kapitalini shakllantirish va rivojlantirishdagi o'rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Ayniqsa, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya xizmatlarining aholining bilim darajasi, mehnat qobiliyati, ijtimoiy faolligi hamda innovatsion salohiyatiga ta'siri ochib berilgan. Tadqiqot jarayonida ta'lim xizmatlari inson kapitalini shakllantirishdagi vazifalariga ko'ra tasniflanib, ularning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy samarasi asoslab berilgan. Shuningdek, O'zbekistonda ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar inson kapitalini iqtisodiy o'sishning strategik omili sifatida qaror topayotganini ko'rsatishi ilmiy jihatdan asoslanadi. Maqolada olingan xulosalar ijtimoiy xizmatlar sohasida davlat siyosatini takomillashtirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy xizmatlar, inson kapitali, ta'lim xizmatlari, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya, barqaror iqtisodiy rivojlanish, innovatsion iqtisodiyot.

Kirish. Inson kapitalini shakllantirish va rivojlantirish barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o'sishni ta'minlashning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy taraqqiyot sur'atlari aholining bilim darajasi, sog'lomligi, kasbiy malakasi va ijtimoiy faolligi bilan uzviy bog'liqdir. Mazkur omillar esa, avvalo, ijtimoiy xizmatlar tizimi, xususan ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya xizmatlari orqali shakllanadi.

Ayniqsa, ta'lim xizmatlari inson kapitalining bazaviy tarkibiy qismi sifatida jamiyatning intellektual salohiyatini oshirish, innovatsion rivojlanishni ta'minlash va mehnat unumdorligini yuksaltirishda hal qiluvchi o'rin tutadi. Shu bois, ijtimoiy xizmatlarni inson kapitalini shakllantirish nuqtai nazaridan ilmiy tahlil qilish va ularni vazifalariga ko'ra tasniflash dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Inson kapitali nazariyasi iqtisodiy fanlarda XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida shakllandi. Ushbu nazariya asoschilari qatorida T. Shuls va G. Bekker inson kapitalini ta'lim, sog'liqni saqlash va kasbiy tayyorgarlikka yo'naltirilgan investitsiyalar natijasi sifatida talqin qilganlar. Ularga ko'ra, inson kapitalining o'sishi mehnat unumdorligi oshishi va iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi asosiy omil hisoblanadi.

A. Senning inson taraqqiyoti konsepsiyasida esa inson kapitali faqat iqtisodiy resurs sifatida emas, balki inson imkoniyatlarini kengaytirish va hayot sifati yaxshilanishining asosiy sharti sifatida baholanadi. Ushbu yondashuv ijtimoiy xizmatlarni iqtisodiy o'sish bilan bir qatorda ijtimoiy adolat va inklyuziv rivojlanish omili sifatida ko'rish imkonini beradi.

Jahon banki va BMT taraqqiyot dasturining tadqiqotlarida ijtimoiy xizmatlarga, xususan ta'lim va sog'liqni saqlash sohalariga yo'naltirilgan sarmoyalar inson kapitalining sifat ko'rsatkichlarini oshirishi va mamlakatlarning uzoq muddatli iqtisodiy o'sish sur'atlarini belgilab berishi ta'kidlanadi. Jahon bankining Inson kapitali indeksi inson kapitalini iqtisodiy raqobatbardoshlikning muhim ko'rsatkichi sifatida baholaydi.

Ijtimoiy xizmatlar iqtisodiyoti masalalari N. Barr, P. Lindert, R. Titmus va G. Esping-Andersen asarlarida keng yoritilgan. Ular ijtimoiy himoya va ijtimoiy xizmatlar tizimlarini jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi hamda iqtisodiy tavakkalchilikni kamaytiruvchi institutsional mexanizm sifatida baholaydilar. Ayniqsa, P. Lindert tadqiqotlarida rivojlangan ijtimoiy himoya tizimiga ega mamlakatlar uzoq muddatda yuqori iqtisodiy o'sishni ta'minlashi ilmiy jihatdan isbotlangan.

Sog'liqni saqlash xizmatlarining inson kapitaliga ta'siri masalalari M. Grossmanning iqtisodiy modellarida atroflicha tahlil qilingan bo'lib, unda sog'liq inson kapitalining mustaqil tarkibiy qismi sifatida qaraladi. D. Veyl tadqiqotlarida esa aholi salomatligining yaxshilanishi rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy o'sishning salmoqli qismini ta'minlashi qayd etilgan.

Madaniyat va sport xizmatlarining iqtisodiy ahamiyati D. Trouzbi, R. Florida va B. Frey ishlarida yoritilib, ularning ijtimoiy kapital, ijodiy salohiyat va innovatsion iqtisodiyot shakllanishidagi roli asoslab berilgan. Mazkur xizmatlar inson kapitalining ma'naviy va ijtimoiy tarkibiy qismlarini mustahkamlaydi.

Milliy ilmiy tadqiqotlarda ham ijtimoiy xizmatlar inson kapitalini rivojlantirishning muhim omili sifatida qaraladi. O'zbekistonda ijtimoiy yo'naltirilgan iqtisodiyot modeli doirasida ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish, aholi farovonligini oshirish va kambag'allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Bu esa ijtimoiy xizmatlarning inson kapitalini rivojlantirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi ahamiyatini yanada oshiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot ijtimoiy xizmatlar tizimining inson kapitalini shakllantirish va rivojlantirishdagi rolini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda kompleks ilmiy-metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida ijtimoiy xizmatlarni iqtisodiy va institutsional tizim sifatida baholash, ularning inson kapitaliga ta'sir mexanizmlarini ochib berish jarayonida tizimli tahlil usuli, institutsional yondashuv, qiyosiy-tahliliy usul, tasniflash va guruhlash usuli, statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Olib borilgan tadqiqot natijalari ijtimoiy xizmatlar tizimi, ayniqsa ta'lim xizmatlari inson kapitalini shakllantirish va rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ko'rsatdi. Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, ta'lim xizmatlari inson hayoti davomida bosqichma-bosqich ravishda inson kapitalining jismoniy, intellektual va ijtimoiy tarkibiy qismlarini shakllantiradi.

Tadqiqot natijasida ta'lim xizmatlarini inson kapitalini shakllantirishdagi vazifalariga ko'ra maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, oliy ta'lim, kasb-hunar ta'limi hamda qo'shimcha va uzluksiz ta'lim turlariga ajratish mumkinligi aniqlandi. Mazkur tasnif ta'lim xizmatlarining inson kapitalini shakllantirishda uzluksiz va tizimli xarakterga ega ekanini ko'rsatadi.

Aniqlanishicha, maktabgacha ta'lim inson kapitalini shakllantirishning eng yuqori ijtimoiy qaytinga ega bosqichi hisoblanib, ushbu bosqichda qilingan investitsiyalar kelgusida ta'lim natijalari, mehnat unumdorligi va ijtimoiy moslashuv darajasini sezilarli oshiradi. Umumiy o'rta ta'lim esa aholining funksional savodxonligini ta'minlab, tanqidiy fikrlash, axborot bilan ishlash va raqamli ko'nikmalarni shakllantirish orqali inson kapitalining bazaviy sifat ko'rsatkichlarini mustahkamlaydi.

Tadqiqot natijalari oliy ta'lim xizmatlari inson kapitalining yuqori darajadagi sifatini ta'minlashda, innovatsion salohiyatni shakllantirishda va mehnat unumdorligini oshirishda muhim o'rin tutishini ko'rsatdi. Oliy ta'lim orqali tayyorlangan yuqori malakali kadrlar iqtisodiyot tarmoqlarida texnologik yangilanishlar va innovatsion rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylanmoqda.

Kasb-hunar ta'limi mehnat bozori talablariga mos amaliy ko'nikmalarni shakllantirish orqali inson kapitalining bozorga moslashuvchanligini oshirayotgani aniqlandi. Ayniqsa, dual ta'lim modellarini joriy etish ish beruvchilar ehtiyojlariga javob beradigan kasbiy tayyorgarlikni ta'minlashda yuqori samara bermoqda. Qo'shimcha va uzluksiz ta'lim esa raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitalini doimiy yangilash va raqobatbardoshligini saqlab qolishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shuningdek, tadqiqot natijalari tibbiy xizmatlar aholining mehnat qobiliyati, hayot davomiyligi va demografik barqarorligini ta'minlash orqali inson kapitalining sifat ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir ko'rsatayotganini ko'rsatdi. Sog'liqni saqlash xizmatlariga yo'naltirilgan sarmoyalar mehnat unumdorligini oshirish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Madaniyat va sport xizmatlari inson kapitalining ma'naviy va jismoniy tarkibiy qismlarini mustahkamlashga xizmat qilib, aholining ijtimoiy faolligi va ijodiy salohiyatini oshirayotgani aniqlandi. Ijtimoiy himoya xizmatlari esa zaif ijtimoiy guruhlarni qo'llab-quvvatlash orqali ijtimoiy barqarorlikni ta'minlab, inson kapitalini takror ishlab chiqarish jarayonida muhim institut sifatida namoyon bo'lmoqda.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari ijtimoiy xizmatlar tizimining inson kapitalini rivojlantirish orqali barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o'sishni ta'minlashda strategik ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi. Shulardan kelib chiqib, ta'lim xizmatlarining inson kapitalini shakllantirishdagi vazifalariga ko'ra tasniflash mumkin (1.2.1-jadval). Ta'lim xizmatlarini bunday tasniflash inson

kapitalining shakllanishi va rivojlanishi uzluksiz, bosqichma-bosqich jarayon ekanini ilmiy jihatdan asoslash imkonini beradi.

1-jadval

Ijtimoiy xizmatlar tizimida ta’lim xizmatlarining inson kapitalini shakllantirishiga ko’ra tasnifi

№	Ta’lim xizmatlari	Asosiy mazmun va vazifasi	Ijtimoiy samarasi
1	Maktabgacha ta’lim	Bolalarning jismoniy, intellektual va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlaydi. Erta yoshda ta’limga qilingan sarmoya kelajakda yuqori ijtimoiy va iqtisodiy samara beradi.	Erta ta’lim investitsiyalari eng yuqori ijtimoiy daromad keltiradi.
2	Umumiy o’rta ta’lim	Barcha fuqarolarga bazaviy bilim va ko’nikmalarni berish, funksional savodxonlikni ta’minlash.	Tanqidiy fikrlash, muammoni yechish, axborot bilan ishlash, kommunikatsiya va raqamli ko’nikmalarni shakllantiradi.
3	Oliy ta’lim	Yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, ilmiy tadqiqot va innovatsiyalarni rivojlantirish.	Mehnat unumdorligi va inson kapitali sifatini oshirib, barqaror iqtisodiy o’sishni ta’minlaydi.
4	Kasb-hunar ta’limi	Mehnat bozori talablariga mos amaliy ko’nikmalarni shakllantirish.	Nemis–Shveytsariya dual ta’lim modeli asosida eng samarali tizim sifatida baholanadi.
5	Qo’shimcha va uzluksiz ta’lim	Ishchi kuchi malakasini doimiy oshirish, yangi va raqamli ko’nikmalarni egallash.	Innovatsion rivojlanish va iqtisodiy o’sishning asosiy omili hisoblanadi.

Jadvalda keltirilgan tasnif ta’lim xizmatlarining inson kapitalini rivojlantirishdagi rolini bosqichma-bosqich tizim sifatida namoyon etadi. Har bir ta’lim turi muayyan yosh yoki faoliyat davrida shaxsiy, kasbiy va iqtisodiy salohiyatni oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ta’lim xizmatlari o’ziga xos jihati bilan qisqa muddatda to’g’ridan-to’g’ri pul daromadini oshirmaydi, balki uzoq muddatli strategik investitsiya xarakteriga ega.

Makroiqtisodiy tadqiqotlar natijalariga ko’ra, aholining ta’lim darajasining o’rtacha bir yilga oshishi yalpi ichki mahsulot o’sishini 0,37 foizga oshiradi. Bu holat ta’lim xizmatlarining iqtisodiy o’sishga bilvosita, biroq barqaror ta’sir ko’rsatishini tasdiqlaydi. Shu bois, O’zbekistonda ta’lim xizmatlariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, 2025 yilning yanvar–noyabr oylarida ta’lim sohasidagi bozor xizmatlari hajmi 34,2 trln so’mni tashkil etib, bu ko’rsatkich 2024 yilning mos davriga nisbatan 8,8 foizga oshgan. Mazkur xizmatlar jami bozor xizmatlari hajmining 3,7 foizini tashkil etgan bo’lib, ularda oliy ta’lim xizmatlari ustunlik qilib, ulushi 46,8 foizga yetgan.

Ijtimoiy xizmatlar tizimida tibbiy xizmatlar ham inson kapitalini shakllantirishda muhim tarkibiy qism hisoblanadi. Tibbiy xizmatlar aholining hayot sifati, mehnat qobiliyati va demografik barqarorligiga bevosita ta’sir ko’rsatadi. Shu bois, ijtimoiy yo’naltirilgan davlat modeli sharoitida sog’liqni saqlash xizmatlarining rivojlanishi aholining umumiy farovonligi va ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bilan uzviy bog’liqdir.

Bundan tashqari, jismoniy tarbiya, madaniyat va sport xizmatlari inson kapitalining jismoniy va ma’naviy tarkibiy qismlarini mustahkamlaydi. D.Trouzbi madaniyat iqtisodiyoti konsepsiyasi orqali madaniyat xizmatlarining iqtisodiy rivojlanishdagi o’rnini ilmiy jihatdan asoslab bergan. R. Florida “ijodiy sinf” konsepsiyasida madaniy xizmatlar innovatsion iqtisodiyot shakllanishida muhim omil ekanini ta’kidlaydi. B. Frey esa madaniyat xizmatlarining tashqi ijobiy samarasi orqali ijtimoiy kapital shakllanishiga qo’shadigan hissasini ilmiy jihatdan isbotlagan.

Ijtimoiy xizmatlar tizimida sog’liqni saqlash xizmatlarining iqtisodiy ahamiyati M.Grossman tadqiqotlarida atroflicha yoritilgan bo’lib, unda sog’liq inson kapitalining mustaqil turi sifatida qaraladi. D. Veyl hisob-kitoblariga ko’ra, aholi salomatligining yaxshilanishi rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy o’sishning 30–40 foizini ta’minlaydi.

Ijtimoiy himoya xizmatlari esa zaif ijtimoiy guruhlarini qo’llab-quvvatlash va jamiyatda

ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan. R. Titmuss ijtimoiy muhofazani jamiyatning o’z a’zolariga bo’lgan munosabatining ifodasi sifatida talqin qilgan. G. Esping-Andersen ijtimoiy muhofaza tizimlarining liberal, korporativ-konservativ va sotsial-demokratik modellarini ajratib ko’rsatgan. P. Lindert tadqiqotlari esa rivojlangan ijtimoiy himoya tizimiga ega mamlakatlar uzoq muddatda yuqori iqtisodiy o’sish sur’atlarini ta’minlashini ko’rsatadi.

Shu tariqa, ijtimoiy xizmatlarning, ayniqsa ta’lim, tibbiy, madaniy va ijtimoiy himoya xizmatlarining inson kapitalini rivojlantirish va iqtisodiy o’sishni ta’minlashdagi roli o’ta muhim ekanligi ilmiy jihatdan tasdiqlanadi. Yangi O’zbekistonni barpo etish sharoitida aholiga ijtimoiy xizmatlar ko’rsatishning samarali tizimini joriy etish, jumladan davlat xizmatlari markazlari orqali uy-joy-kommunal ehtiyojlarga oid 700 dan ortiq xizmat turlarining ko’rsatilishi mazkur sohadagi institutsional islohotlarning amaliy samarasini namoyon etadi.

Xulosa va takliflar. Olib borilgan tadqiqot natijalari ijtimoiy xizmatlar tizimi, xususan ta’lim, sog’liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya xizmatlarining inson kapitalini shakllantirish va rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini tasdiqladi. Inson kapitali sifati va samaradorligi ushbu xizmatlarning qamrovi, sifati hamda institutsional tashkil etilishi bilan bevosita bog’liq ekanini ilmiy jihatdan asoslandi.

Tadqiqot jarayonida ta’lim xizmatlarining inson kapitalini shakllantirishdagi vazifalariga ko’ra tasnifi taklif etildi va mazkur tasnif ta’limning uzluksiz, bosqichma-bosqich investitsiya jarayoni ekanini ko’rsatdi. Maktabgacha ta’limdan boshlab uzluksiz ta’limgacha bo’lgan barcha bosqichlar inson kapitalining jismoniy, intellektual va ijtimoiy tarkibiy qismlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Makroiqtisodiy tahlillar ta’lim darajasining oshishi iqtisodiy o’sishga barqaror ta’sir ko’rsatishini, ta’limga yo’naltirilgan sarmoyalar esa uzoq muddatli strategik investitsiya sifatida namoyon bo’lishini ko’rsatdi.

Shuningdek, tibbiy xizmatlar aholining mehnat qobiliyati, hayot sifati va demografik barqarorligini ta’minlash orqali inson kapitalining sifat ko’rsatkichlarini yaxshilashi aniqlandi. Madaniyat va sport xizmatlari inson kapitalining ma’naviy va jismoniy tarkibiy qismlarini mustahkamlab, ijtimoiy faollik va ijodiy salohiyatni oshirishga xizmat qiladi. Ijtimoiy himoya xizmatlari esa zaif ijtimoiy guruhlarni qo’llab-quvvatlash orqali ijtimoiy barqarorlikni ta’minlab, iqtisodiy tavakkalchiliklarni yumshatishda muhim institutsional rol o’ynaydi.

Yuqoridagi xulosalar asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

1. Ijtimoiy xizmatlarni inson kapitalini rivojlantirishga yo’naltirilgan strategik institut sifatida davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining ustuvor yo’nalishi sifatida belgilash zarur.
2. Ta’lim va sog’liqni saqlash xizmatlarida raqamli va yashil texnologiyalarni keng joriy etish orqali xizmatlar sifatini oshirish va inson kapitalining raqobatbardoshligini ta’minlash maqsadga muvofiq.
3. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini takomillashtirish ijtimoiy xizmatlar sohasiga investitsiyalarni jalb qilish va xizmatlar qamrovini kengaytirishga xizmat qiladi.
4. Ijtimoiy xizmatlarga yo’naltirilgan sarmoyalarni uzoq muddatli strategik investitsiya sifatida baholash va ularning iqtisodiy qaytimini makroiqtisodiy indikatorlar orqali monitoring qilish zarur.
5. Yangi O’zbekiston sharoitida ijtimoiy xizmatlarni ko’rsatishning inklyuziv va raqamlashtirilgan modelini rivojlantirish aholi farovonligini oshirish va barqaror iqtisodiy o’sishni ta’minlashning muhim omili sifatida qaralishi lozim.

Umuman olganda, ijtimoiy xizmatlarni tizimli ravishda rivojlantirish inson kapitalini sifat jihatdan oshirish orqali milliy iqtisodiyotning barqaror va innovatsion rivojlanishi uchun mustahkam asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Becker, G. S. (1993). Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. 3rd Edition. Chicago: University of Chicago Press.
2. Schultz, T. W. (1961). Investment in Human Capital. The American Economic Review, 51(1), 1–17.
3. Sen, A. (1999). Development as Freedom. Oxford: Oxford University Press.
4. Grossman, M. (1972). On the Concept of Health Capital and the Demand for Health. Journal of Political Economy, 80(2), 223–255.
5. Weil, D. N. (2007). Accounting for the Effect of Health on Economic Growth. Quarterly Journal of Economics, 122(3), 1265–1306.

6. Barr, N. (2012). The Economics of the Welfare State. 5th Edition. Oxford: Oxford University Press.
7. Esping-Andersen, G. (1990). The Three Worlds of Welfare Capitalism. Princeton: Princeton University Press.
8. Titmuss, R. M. (1974). Social Policy: An Introduction. London: Allen & Unwin.
9. Lindert, P. H. (2004). Growing Public: Social Spending and Economic Growth since the Eighteenth Century. Cambridge: Cambridge University Press.
10. Throsby, D. (2001). Economics and Culture. Cambridge: Cambridge University Press.
11. Florida, R. (2002). The Rise of the Creative Class. New York: Basic Books.
12. Frey, B. S. (2008). Arts & Economics: Analysis & Cultural Policy. Berlin: Springer.
13. World Bank. (2020). Human Capital Index 2020 Update. Washington, DC: World Bank Group.
14. World Bank. (2019). World Development Report 2019: The Changing Nature of Work. Washington, DC: World Bank.
15. United Nations Development Programme (UNDP). (2022). Human Development Report 2022. New York: UNDP.
16. OECD. (2018). Social Protection and Social Services in Developing Countries. Paris: OECD Publishing.
17. Malofeev, I. V. (2010). Sotsialnye uslugi kak institut sotsialno-ekonomicheskogo razvitiya. Moskva: Nauka.
18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (2017). “Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” (PF-4947). Toshkent.
19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (2022). “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” (PF-60). Toshkent.
20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (2023). “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida. Toshkent.
21. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. (2025). Ta’lim va ijtimoiy xizmatlar sohasi bo‘yicha statistik ma’lumotlar. www.stat.uz

Ф.Шаназаров Роль образования и социальных услуг в формировании человеческого капитала	F.Shanazarov The role of education and social services in the formation of human capital
Аннотация. В статье проведён научно-теоретический анализ роли системы социальных услуг в формировании и развитии человеческого капитала. Особое внимание уделено влиянию образовательных, медицинских, культурных, спортивных и социальных защитных услуг на уровень знаний населения, трудоспособность, социальную активность и инновационный потенциал. В ходе исследования классифицированы образовательные услуги в зависимости от их функций в формировании человеческого капитала, а также обоснована их долгосрочная социально-экономическая эффективность. Кроме того, научно аргументировано, что реализуемые в Узбекистане реформы в сфере социальных услуг способствуют утверждению человеческого капитала в качестве стратегического фактора экономического роста. Полученные выводы имеют практическое значение для совершенствования государственной политики в сфере социальных услуг и обеспечения устойчивого экономического развития. Ключевые слова: социальные услуги, человеческий капитал, образовательные услуги, здравоохранение, социальная защита, устойчивое экономическое развитие, инновационная экономика.	Abstract. The article provides a scientific and theoretical analysis of the role of the social services system in the formation and development of human capital. Particular attention is paid to the impact of educational, healthcare, cultural, sports, and social protection services on the population’s level of knowledge, labor capacity, social activity, and innovative potential. During the research, educational services were classified according to their functions in the formation of human capital, and their long-term socio-economic effectiveness was substantiated. In addition, it is scientifically argued that the reforms being implemented in Uzbekistan in the field of social services contribute to establishing human capital as a strategic factor of economic growth. The conclusions obtained have practical significance for improving state policy in the social services sector and ensuring sustainable economic development. Keywords: social services, human capital, educational services, healthcare, social protection, sustainable economic development, innovative economy.

ISSN 2091-5187

❧ “SERVIS” ❧

Jurnal Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tahririyat
bo‘limida nashrga tayyorlandi.

15.05.2026-yilda terishga berildi. 26.05.2026-yilda bosishga ruxsat etildi. Ofset
bosma qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84_{1/8}. “Times” garniturasini. Ofset bosma usuli.
Shartli bosma tabog‘i 15,4. Hisob-nashriyot
tabog‘i 14,37. Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 0105A/26

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining
matbaa bo‘limida chop etildi.
Litsenziya № 025316.
Reestr № X-119112.

Manzil: Samarqand shahri, Shoxruh ko‘chasi, 60-uy.

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2026.